BOSH ILMIY-METODIK MARKAZ
SAMDU HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI

ZAMONAVIY GEOMYETRIYA MODULI BO'YIChA O'QUV-USLUBIY MAJMUA

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLIY TA’LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISh BOSH ILMIY-METODIK MARKAZI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI

“ZAMONAVIY GEOMYETRIYA”

MODULI BO’YIChA

O’QUV-USLUBIY MAJMUA

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi yo‘nalishi: Matematika

Samarqand -2023

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil “7”-dekabrdagi 648-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:
Samarqand davlat universiteti Algebra va geometriya kafedrasi mudiri, dotsent H.Ro‘zimurodov

Taqrizchilar:
Samarqand davlat universiteti Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika kafedrasi professori f-m.f.d., prof. J.Abdullayev, dasturiy injinering kafedrasi mudiri, t.f.f.d. O. Yusupov

O’quv-uslubiy majmua Samarqand davlat universiteti ilmiy-metodik kengashi (2020 yil “28”-dekabrdagi 4- sonli bayonnomasi).

MUNDARIJA

I.Ishchi dastur

KIRISh

Dastur O’zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil7 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son,2019 yil 8 oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”giPF-5847-sonli Farmonlari hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamdainnovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdekamaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Mazkur dastur zamonaviy talablar va rivojlangan xorijiy davlatlarning oliy ta’lim sohasida erishgan yutuqlar hamda orttirilgan tajribalar asosida «Matematika» qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishi uchun tayyorlangan namunaviy o‘quv reja hamda dastur mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishda xizmat qiladi.

Modulning maqsadi va**vazifalari**

“Zamonaviy geometriya” modulining maqsadi: pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

“Zamonaviy geometriya” modulining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- “Matematika” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

-pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta’minlash;

- mutaxassislik fanlari sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘zlashtirish;

“Matematika” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

Modul yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda

kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

Matematika fanlari bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- integral va o‘lchov tushunchalarini;
- geometriyaning chiziqli fazo va chiziqli akslantirishlar yordamida bayon etilishi, vektor algebrasidan foydalanishni;
- matematik masalalarni matematik tizimlarda yechishni va standart funksiyalardan foydalanishni;
- matematikani o‘qitishda uning tatbiqlari bilan tushuntirishni, hayotiy va sohaga oid misollarni;
- matematik fanlarni o‘qitishning zamonaviy usullarini ***bilishi*** kerak.

Tinglovchi:

- o‘lchovlar nazariyasidan matematika, fizika va biologiya masalalarida keng foydalanish;
- matematik analizning biomatematika, mexanika, ommaviy xizmat nazariyasi, iqtisodiy sohalar va boshqa sohalarda keng qo‘llash;
- matematik fanlarni o‘qitishda innovatsion ta’lim metodlari va vositalarini amaliyotda qo‘llash;
- talabaning o‘zlashtirish darajasini nazorat qilish va baholashning nazariy asoslari hamda innovatsion yondashuv uslublarini to‘g‘ri qo‘llay olish ***ko‘nikmalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- o‘lchovlar nazariyasi va uning tatbiqini turli fazolarda qo‘llay olish;
- geometriyaning chiziqli fazo va chiziqli akslantirishlar yordamida bayon etilishi, vektor algebrasidan foydalanish;
- matematikani o‘qitish innovatsion jarayonini loyihalashtirish va tashkillashtirishning zamonaviy usullarini qo‘llash ***malakalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- matematikani o‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy (matlab, mathcad, maple, GeoGebra va boshqalar) matematik paketlarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish;
-matematikaning xorij va respublika miqyosidagi dolzarb muammolari, yechimlari, tendensiyalari asosida o‘quv jarayonini tashkil etish;
- matematikani turli sohalarga tatbiq etish;
- oliy ta’lim tizimida matematik fanlar mazmunining uzviyligi va uzluksizliginitahlil qila olish **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ilg‘or xorijiy mamlakatlarda biologiya o‘qitishni tashkil qilishning xorijiy tajribalarni o‘rganish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar. So‘nggi yillarda matematika sohasidagi yutuqlar va istiqbollar oliy o‘quv yurtlaridagi ta’lim jarayonining mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

“Zamonaviy geometriya” modulining soatlar bo‘yicha taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat				
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi			Ko‘chma mashg‘ulot
			Jami	jumladan		
				Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	
1.	Chiziqli fazo.	**4**	**4**	**2**	**2**	
2.	Yevklid fazosi.	**4**	**4**	**2**	**2**	
3.	Psevdoyevklid fazo.	**4**	**4**	**2**	**2**	
4.	Giperbolik fazo.	**4**	**4**	**2**	**2**	
5	Ikkinchi tartibli sirtlar. Ikkinchi tartibli sirt invariantlari.	**2**	**2**		**2**	
6.	Ko‘pxilliklar. Ko‘pxillik turlari. Ko‘pxillik geometriyasi.	**2**	**2**		**2**	
Jami:		**20**	**20**	**8**	**12**	**0**

NAZARIY MAShG’ULOT MATYeRIALLARI

1-Mavzu: Chiziqli fazo.

1. Chiziqli fazo o‘lchami. Affin fazo.
2. Affin koordinatalar sistemasi.
3. Affin almashtirishlar va tekisliklari. Bichiziqli forma.

2-Mavzu:Yevklid fazosi.

1. Yevklid fazosida chiziq va sirtlar.
2. Sirt differensial geometriyasi.
3. Sirt ichki geometriyasi. Sirt tashqi geometriyasi.

3-Mavzu: Psevdoyevklid fazo.

1. Sferik fazo.
2. Riman geometriyasi.

4-Mavzu:Giperbolik fazo.

1. Yarim Yevklid fazolar.
2. Yarim giperbolik fazolar.

AMALIY MAShG’ULOTLAR

1-Amaliy mashg‘ulot. Chiziqli fazo.

2-Amaliy mashg‘ulot. Yevklid fazosi.

3-Amaliy mashg‘ulot. Psevdoyevklid fazo.

4-Amaliy mashg‘ulot. Giperbolik fazo.

5-Amaliy mashg‘ulot. Ikkinchi tartibli sirtlar. Ikkinchi tartibli sirt invariantlari.

6-Amaliy mashg‘ulot. Ko‘pxilliklar. Ko‘pxillik turlari. Ko‘pxillik geometriyasi.

II.MODULNI O’QITIShDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

Davra stolining tuzilmasi.

Yozma davra suhbatida stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. Shundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida “Davra suhbati” metodining tuzilmasi keltirilgan



“Davra suhbati” metodining afzalliklari:

- o‘tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta’lim oluvchi o‘zining baholanishi mas’uliyatini his etadi;

o‘z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi**“Keys-stadi” metodi**

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari.

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Assesment” metodi.

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

1-MAVZU:CHIZIQLI FAZO

REJA:

1. Chiziqli fazo o’lchami. Afin fazo.
2. Afin koordinatalar sistemasi.
3. Afin almashtirishlar va tekisliklari. Bichiziqli forma.

Tayanch iboralar:*Chiziqli fazo, o‘lchami, afin fazo, afin koordinatalar sistemasi, afin almashtirishlar va tekisliklari,bichiziqli forma.*

Chiziqli fazo o‘lchami. Afin fazo.

Ko‘p hollarda shunday obektlar bilan ish ko‘rishga to‘g‘ri keladiki, bunda ularni qo‘shish va biror songa ko‘paytirish amallarini bajarish lozim bo‘lib qoladi. Bir necha misol keltiramiz.

Geometriyada bunday ob’ektlar uch o‘lchamli fazodagi vektorlar, ya’ni yo‘nalishli kesmalardir. Agar yo‘nalishli ikki kesmani parallel ko‘chirish yo‘li bilan ustma-ust tushirish mumkin bo‘lsa, ular ayni bir vektorni aniqlaydi deb hisoblanadi. Shuning uchun bu kesmalarning hammasini bir nuqtadan boshlab chiqarish qulay. Bu nuqtani biz koordinatalar boshi deb ataymiz. Ma’lumki, vektorlarni qo‘shish amali quyidagichadir: x va u vektorlarning yig‘indisi deb, tomonlari x va u bo‘lgan parallelogrammning diogonali hisoblanadi. Vektorni songa ko‘paytirish amali ham ma’lum usul bilankiritiladi.

1. Algebrada biz n ta sondan iborat $x=\xi_1' e_1+\xi_2' e_2+...+\xi_n' e_n$ ko‘rinishdagi sistemalar (masalan: matritsaning yo‘llari, chiziqli forma koeffitsiyentlari, to‘plami va h.k.) bilan ish ko‘rishga to‘g‘ri keladi. Bunday sistemalarni qo‘shish va songa qo‘paytirish amallari odatda quyidagichakiritiladi: $x=(\xi_1,\xi_2,...,\xi_n)$ va $y=(\eta_1,\eta_2,...,\eta_n)$ sistemalar yig‘indisi deb, $x+y=(\xi_1+\eta_1,\xi_2+\eta_2,...,\xi_n+\eta_n)$ sistemaga aytiladi.$x=(\xi_1,\xi_2,...,\xi_n)$ sistema bilan λsonning ko‘paytmasi deb, $\lambda x=(\lambda\xi_1,\lambda\xi_2,...,\lambda\xi_n)$ sistemaga aytiladi. Analizda funksiyalarni qo‘shish va ularni songa ko‘paytirish amallari to‘g‘risida t ta’rif beriladi. Aniqlik uchun bundan so‘ng $[a,b]$ segmentdaberilgan hamma uzluksiz funksiyalarto‘plamini tekshiramiz.

Keltirilgan misollarda qo‘shish va songa ko‘paytirishdan iborat xuddi bir xil amallar mutlaqo har xil ob’ektlar ustida bajariladi. Bunday misollarning hammasini bir nuqtai nazar bilan o‘rganish uchun, biz chiziqli, ya’ni affin fazo tushunchasini kiritamiz.

1-ta’rif. Agar quyidagi shartlar bajarilsa, x,u,z,... elementlarning V to‘plami chiziqli (afin) fazo deyiladi:

a) xar ikki *x* va *u* elementlarga *x* va *u* elementlar yig‘indisi deb ataladigan *z* element mos qilib qo‘yilgan; *x* va *u* elementlarning yig‘indisi *x+u* bilan belgilanadi;

b) biror maydonning har bir *x* elementi va har bir λson bilan *x* element ko‘paytmasi deb atalgan λx element mos qilib qo‘yilgan.

Bu amallar quyidagi talablarni (aksiomalarni) qanoatlantirishi kerak. 1^0.$x+u=u+x$ (kommutativlik), 2^0.$(x+u)+z=x+(u+z)$(assotsiativlik), 3^0.Xar qanday x uchun shunday 0 element mavjudki, x+0=x bo‘ladi. 0 element nol element deyiladi.

4^0 Xar qandayx uchun –x bilan belgilanadigan shunday element mavjudki, x+(-x)=0 bo‘ladi.

1^0 $1 \cdot x=x$,

2^0 $\alpha(\beta x)=\alpha\beta(x)$.

3^0 $(\alpha+\beta)x=\alpha x+\beta x$,

4^0 $\alpha(x+y)=\alpha x+\alpha x$.

Biz qo‘shish hamda songa ko‘paytirish amallarini qanday ta’riflanishi haqida gapirmaganimiz bejiz emas. Biz bu amallarni faqat yuqorida ta’riflangan aksiomalarga buysunishlarini talab qilamiz holos. Shuning uchunhar qachon yuqorida qayd qilingan shartlarni qanoatlantiruvchi amallar bilan ish ko‘rar ekanmiz, biz ularni qo‘shish va songa ko‘paytirish amallari deb, elementlari ustida bu amallar bajarilgan to‘plamni esa chiziqli fazo deb xisoblashga haqlimiz. Yuqorida keltirilgan 1-3 misollar bu aksiomalargabo‘ysunadi.

Yana bir misol ko‘rib chiqaylik;

1. Darajasi natural *n* sondan oshmaydigan va odatdagicha qo‘shish va biror songa ko‘paytirish amallari bajariladigan hamma ko‘pxadlar to‘plami chiziqli fazo hosil qiladi.

Yolg‘iz *n*-darajali ko‘pxadlar to‘plami chiziqli fazo tashkil qilmaydi, chunki *n*-darajali ikki ko‘pxad yig‘indisi *n* dan pastroq bo‘lib chiqishi ham mumkin; masalan, $(t^n+t)+(-t^n+t)=2t$.

Chiziqli fazo elementlarini biz *vektorlar* deb ataymiz. Bu so‘zning ko‘pincha tor ma’noda (1-misoldagi kabi) ishlatishi bizni chalg‘itmasligi kerak. Bu chiziq bilan bog‘lik bo‘lgan geometrik tasavvurlar bir qancha natijalarni oydinlashtirishga, ba’zi hollarda esa bu natijalarni oldindan ko‘ra bilishga yordam beradi.

Agar chiziqli fazo ta’rifida qatnashayotgan $\lambda,\mu,...$ sonlar xaqiqiy bo‘lsa, u holda fazo *xaqiqiy chiziqli fazo* deyiladi.

Biz $\lambda,\mu,...$ larni ixtiyoriy *F* maydon elementlari deb umumiyroq faraz etishimiz mumkin. Bu holda *V* fazo *F maydondagi chiziqli fazo* deyiladi. Quyida bayon etiladigan tushuncha va teoremalarning ko‘pchiligi ixtiyoriy maydondagi chiziqli fazalar uchun ham bevosita to‘g‘ri bo‘ladi.

2. Afin koordinatalar sistemasi.

Bundan keyin vektorlarning chiziqli bog‘liqligi va chiziqli erkliligi degan tushunchalar muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

2-ta’rif. V–chiziqli fazo bo‘lsin. Agar kamida bittasi noldan farq qiladigan $\alpha, \beta, \gamma, \ldots, \theta$ sonlar mavjud bo‘lib, $\alpha x+\beta y+\gamma z+\ldots+\theta v=0$ (1) tenglik o‘rinli bo‘lsa, bu holda $x,y,z,\ldots,v$ vektorlar chiziqli bog‘liq vektorlar deyiladi.

Chiziqli bog‘liq bo‘lmagan vektorlar chiziqli erkli vektorlar deyiladi. Boshqacha qilib aytganda, $\alpha x+\beta y+\gamma z+\ldots+\theta v=0$ tenglik $\alpha=\beta=\gamma=\ldots=\theta=0$ bo‘lgan holdagina o‘rinli bo‘lsa, $x,y,z,\ldots,v$ vektorlar chiziqli erkli vektorlar deyiladi. $x,y,z,\ldots,v$ vektorlar chiziqli bog‘liq, ya’ni ular (1) munosabat bilan bog‘langan bo‘lsin va undagi koeffitsiyentlardan kamida bittasi, masalan, α noldan farqli deb faraz qilaylik. Bu holda $\alpha x=-\beta y-\gamma z-\ldots-\theta v$ bo‘ladi. Buni endi α ga bo‘lib va deb faraz qilib, $-\frac{\beta}{\alpha}=\lambda,\ -\frac{\gamma}{\alpha}=\mu,\ldots,-\frac{\theta}{\alpha}=\varsigma$ tenglikni hosil qilamiz. $x=\lambda y+\mu z+\ldots+\varsigma v$ Agar x vektor $y,z,\ldots,v$ vektorlar orqali (2) ko‘rinishdagi tenglik bilan ifoda etilsa, u holda biz x vektor $y,z,\ldots,v$ vektorlarning chiziqli kombinatsiyasi deb ataymiz.

Shunday qilib, agar $x,y,z,\ldots,v$ vektorlar chiziqli bog‘liq bo‘lsa, u holda ulardan kamida bittasi qolganlarining chiziqli kombinatsiyasidan iborat bo‘ladi. Teskarisini, ya’ni bittasi qolganlarining chiziqli kombinatsiyasidan iborat bo‘lganvektorlar chiziqli bog‘lik vektorlar bo‘lishining ham to‘g‘riligini ko‘rsatish mumkin.

Endi fazoning o‘lchamlar soni (o‘lchamligi) tushunchasini kiritishga o‘tamiz.

To‘g‘ri chiziqdagi vektorlar to‘plamida har qanday ikkita vektor proporsional, ya’ni chiziqli bog‘liqdir. Tekislikda ikkita chiziqli erkli vektorni topish mumkin, ammo undagi har qanday uchta vektor chiziqli bog‘liqdir.

Agar V – uch o‘lchamli fazodagi vektorlar to‘plami bo‘lsa, u holda V da uchta chiziqli erkli vektorni topish mumkin, ammo bundagi har qanday to‘rtta vektor chiziqli bog‘liq bo‘ladi.

Biz ko‘ramizki, to‘g‘ri chiziq, tekislik va uch o‘lchamli fazodagi chiziqli erkli vektorlarning maksimal soni geometriyadagi to‘g‘ri chiziq, tekislik hamda fazoning o‘lchami soniga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun quyidagi umumiy ta’rifni qabul qilishimiz tabiiy.

2-MAVZU: EVKLID FAZOSI.

REJA:

1. Evklid fazosida chiziq va sirtlar.
2. Sirt differentsial geometriyasi.
3. Sirt ichki geometriyasi. Sirt tashqi geometriyasi.

Tayanch iboralar*:* Yevklid fazosi,Ortogonal va ortonormal sistemalar.

Ye-haqiqiy sonlar ustida vektor fazo bo‘lib, unda qandaydir qonun yoki qoida bo‘yicha $\forall$ 2 vektorning skalyar ko‘paytirish deb ataluvchi (*x*,*u*) son aniqlangan bo‘lib, bu 4 ta

1. $\forall x, y \in E$ uchun $(x,y)=(y,x)$

2.$\forall x,y,z\in E$ uchun $(x+y,z)=(x,z)+(y,z)$

3.$\forall x\in E,\ \forall\lambda\in R,\ (\lambda x,y)=\lambda(x,y)$

4. $\forall x\neq 0 \quad (x\text{-}x)>0 \quad (x,x)=0 \Leftrightarrow x=\theta$

shartlarni qanoatlantirsa, u holda bunday vektor fazoni Yevklid fazosi deyiladi.

Masalan: $E = R^3; \quad x=(x_1, x_2, x_3), \quad y=(y_1, y_2, y_3)$

$$(x,y)=(x_1\cdot y_1 + x_2\cdot y_2 + x_3\cdot y_3) \qquad (1)$$

1) $(x,y)=(y,x)$

2) $(x+y,z)=(x_1+y_1)\cdot z_1+(x_2+y_2)\cdot z_2+(x_3+y_3)\cdot z_3=$

$=(x_1z_1+x_2z_2+x_3z_3)+(y_1z_1+y_2z_2+y_3z_3)=(x,z)+(y,z)$

3) $(\lambda x,y)\overset{(1)}{=}\lambda x_1y_1+\lambda x_2y_2+\lambda x_3y_3=\lambda(x_1y_1+x_2y_2+x_3y_3)=\lambda(x,y)$

4) $(x,x)=x_1^2+x_2^2+x_3^2\geq 0$

Teorema: Yevlid fazosida quyidagi Koshi-Bunyakovskiy tengsizligi o‘rinli.

$$(x,y)^2\leq(x,x)(y,y) \qquad (2)$$

Isbot. $\forall\lambda\in R, \quad \forall x\cdot y\in E, \quad (\lambda x-y,\lambda x-y)>0$

$(\lambda x\text{-}y,\ \lambda x)+(\ \lambda x\text{-}y,\text{-}y)>0$

$(\lambda x,\ \lambda x)+(\text{-}y,\ \lambda x)+(\ \lambda x_1\text{-}y)+(\text{-}y_1\text{-}y)\geq 0$

$\lambda^2(x,x)\text{-}\ \lambda(y,x)\text{-}\ \lambda(x,y)+(y_1y)>0$

$\lambda^2(x,x)\text{-}2\lambda(x,y)+(y,y)\geq 0$

λ - nisbatan kvadratik uchxad *(x,x)≥0* bo‘lgani uchun

$$b^2 - ac \le 0 \quad a = (x,x) \quad b = -(x,y), \quad c = (y,y)$$

$$(x,y)^2 \le (x,x)(y,y)$$

$$(x,y) = x_1y_1 + ... + x_ny_n = \sum_{k=1}^{n} x_k y_k$$

$$\left(\sum_{k=1}^{n} x_k y_k\right)^2 \le \sum_{k=1}^{n} x_k^2 \ \sum_{k=1}^{n} y_k^2$$

$$|(x,y)| \le \sqrt{(x,x)} \cdot \sqrt{(y,y)} \qquad (3)$$

Ta’rif $\sqrt{(x,x)}$ skalyar ko‘paytmadan chiqqan *x* ni $\| x \| = \sqrt{(x,x)}$,

$\| x \| - x$ elementning normasi.

1. $\| x \| \ge 0$

2. $\| \lambda x \| = \| \lambda \| \| x \| \quad \| \lambda x \| = \sqrt{(\lambda x, \lambda x)} = \sqrt{\lambda^2 (x,x)} = | \lambda | + \sqrt{(x,x)} = | \lambda \| \| x |$

3. $\| x + y \| < \| x \| + \| y \|$

$$| x + y |^2 = (x + y, x + y) = (x + y, x) + (x + y, y) =$$

$$= (x,x) + (y,x) + (y,x) + (y,y) = (x,x) + 2(x,y) + (y,y) =$$

$$\| x \|^2 + 2 \| x \| \cdot \| y \| + \| y \|^2 = (\| x \| + \| y \|)^2$$

$$\| x + y \|^2 \le (\| x \| + \| y \|)^2$$

$\| x \| = \sqrt{x_1^2 + ... + x_n^2}$ x - element (vektori)

Ta’rif. Norma aniqlangan *Ye* fazoni normallashgan fazo deyiladi.

$(E, \| \cdot \|)$ - normalashgan.

Ta’rif. *(x,y)=0* bo‘lsa, ortogonal deyiladi, ya’ni $x \perp y$

$$|(x,y)| \le \sqrt{(x,x)} \cdot \sqrt{(y,y)} \Rightarrow \frac{|(x,y)|}{\| x \| \cdot \| y \|} \le 1.$$

Ta’rif. $\cos\varphi = \dfrac{(x,y)}{\| x \| \cdot \| y \|}$.

Teorema: Agar *(x,y)=0* bo‘lsa, $\varphi = \dfrac{\pi}{2}$ bo‘ladi va aksincha $\dfrac{\pi}{2}$ bo‘lsa *(x,y)=0*.

Ta’rif. Ushbu $e_1, e_2, \ldots, e_n$ vektorlar sistemasi berilgan . Agar $(e_i, e_j) = 0$ $i \ne j$ bo‘lsa berilgan sistemani artogonal vektorlar sistemasi deyiladi.

Ta’rif. $e_1, e_2, \dots, e_n$ vektorlar sistemasi ortogonal sistemani tashkil etadi,agar uzunliklari 1 ga teng bo‘lsa, ortogonal bo‘lsa

$$(e_i, e_j) = \begin{cases} 0, & i \neq j \\ 1, & i = j \end{cases}$$

Teorema: $e_1, \dots, e_n$ o‘rta normal sistema chiziqli bog‘lanmagan $\lambda_1 e_1 + \dots + \lambda_n e_n = 0$, $\lambda_1 = \lambda_2 = \dots = \lambda_n = 0$

$$(ek_1 \lambda e_1 + \dots + \lambda_n e_n) = (e_k, 0) = 0$$

$$\lambda_1 (e_k, e_1) + \lambda_2 (e_k, e_2) + \dots + \lambda_n (e_k, e_n) = 0$$

$$\lambda_k^{'} (e_k e_k) = 0 \qquad \lambda_k = 0 \qquad k = \overline{1,0}$$

Teorema: Ye^n fazoda $e_1, \dots, e_n$ o‘rta normal bazisni tashkil etsa $\Rightarrow (x,y) = x_1 y_1 + \dots + x_n y_n$ bo‘ladi haqiqatdan ham

$$x = x_1 e_1 + \dots + x_n e_n \qquad\qquad y = y_1 e_1 + \dots + y_n e_n$$

$$(x, y) = \left(\sum_{i=1}^{n} x_i e_i, \quad \sum_{j=1}^{n} y_j e_j \right) = \sum_{i=1}^{n} \sum_{j=1}^{n} x_j y_j (e_{i, e_j}) =$$

$$= \sum_{i=1}^{n} x_i y_i = x_1 y_1 + \dots + x_n y_n$$

Agar Ye da o‘rta normal bazis bo‘lsa, $e_1, \dots, e_n$ $(x, e_k) = x_k$.

Teorema. Agar Ye^n da $f_1, \dots, f_n \forall$ bazis bo‘lsa

$$(x, y) = \sum_{i,j=1}^{n} x_i y_j (f_i, f_j) = < (f_i, f_j) = a_{ij} >= \sum_{i,j=1}^{n} a_{ij} x_i y_j$$

bo‘ladi.

Aytaylik Ye Yevklid fazo bo‘lib, $f_1, \dots, f_n$ (1) undagi $\forall$ bazis bo‘lsin. bizning maqsadimiz Ye da aniqlangan (1) ni ortogonal bazis so‘ngra esa ortonormal bazisga aylantirish mumkinligini ko‘rib chiqamiz. Ushbu jarayonni algebra va sonlar nazariyasida ortogonallash jarayoni deyiladi.

U kuyidagicha

$$n = 1, \quad f_1 \quad f_1 \neq 0 \quad e_1 = \frac{f_1}{\sqrt{(f_1, f_2)}}$$

$$n = 2 \quad f_1 \; f_2; \quad e_1 = \frac{f_1}{\sqrt{(f_1, f_2)}}; \quad q_2 = f_2 \neq \lambda f_1 \quad (q_R, e_1 = 0)$$

$$e_2 = \frac{q_2}{\sqrt{(q_1 q_2)}} \qquad (f_2 + \lambda f_1, e_1) = 0 \qquad \lambda = \frac{(f_2 f_1)}{(f_1 e_1)} f$$

$$(f_2e_1)+(f_1e_1)=0$$

Farazqilaylik. $b_1,\dots,b_n$(1) $b_1,\dots,b_m,\ c_{m+1},\dots,c_n$ (2)

$$(b_{m+1},b_i)=0(4) \qquad (i=\overline{1,m})$$

$$(c_{m+1}+\lambda_1 b_1+\dots+\lambda_m b_m;b_i)=0 \qquad (i=\overline{1,m})$$

$$(c_{m+1},b_i)+\lambda_i(b_i,b_i)+\dots+\lambda_i(b_i,b_i)+\dots+\lambda_m(b_m,b_i)=0$$

$$(c_{m+1},b_i)+\lambda_i(b_i,b_i)=0 \quad b_i\neq 0 \quad (b_i,b_i)\neq 0$$

$$\lambda_i=-\frac{(c_{m+1}b_i)}{(b_i,b_i)} \qquad (5)$$

(5) bajarilsa, $\Rightarrow$ (4) tenglik o‘rinli bo‘ladi va natijada $b_1,b_2,\dots,b_m,b_{m+1}$

$m+1=n$ bo‘lsa ortogonallash jarayoni tugaydi.

Agarda $m+1<n$ bo‘lsa, muloxazani takrorlaymiz.

$$b_{m+2}=c_{m-2}+\lambda_1'b_1+\dots+\lambda_{m+1}'b_{m+1} \qquad (6)$$

kabi ajratib, $(b_{m+2},b_j)=0$ (8) $j=\overline{1,m}$.

$$\lambda'=-\frac{(c_{m+2},b_j)}{(b_j,b_j)} \qquad (7)$$

Shunday qilib, $b_1,\dots,b_m,\dots,b_{m+1},\ b_{m+2}$ (7) ortogonal teoremani quramiz. $m+2=n$.

Shunday qilib *Ye* faraz ortogonal jarayon ketma-ket qo‘llab $b_1,\dots,b_n$ (8) ortogonal bazisga ega bo‘lamiz.

$$e_1=\frac{b_1}{|b_1|}\dots e_n=\frac{b_n}{|b_n|} \qquad (9)$$

$$(e_i,e_j)=\left(\frac{b_i}{|b_i|},\frac{b_i}{|b_j|}\right)=\frac{(b_i,b_j)}{|b_j|\cdot|b_i|}=\begin{cases}0 & i\neq j\\ 1 & i=j\end{cases} \quad (b_i,b_j)=(b_j)^2$$

1-teorema. E_n o‘lchovli fazo bo‘lib, (8) ortogonal chiziqli bog‘lanmagan vektorlar sistemasi chiziqli erkli

$$x=x_1e_1+\dots+x_ne_n$$

$$\lambda_1e_1+\dots+\lambda_ne_n=0 \qquad \lambda_i=0 \quad i=\overline{1,n}$$

$$e_k(1\le k<n) \quad (e_k;\ \lambda_1e_1+\lambda_2e_2+\dots+\lambda_ne_n)=(e_k,\theta)=0$$

$$\lambda_1(e_1,e_k)+\lambda_2(e_2,e_k)+\dots+\lambda_k(e_k,e_k)+\dots+\lambda_n(e_k,e_n)=0$$

$$\lambda_e(e_k,e_k)=0 \quad (e_k,e_k)=1 \qquad \lambda_k=0 \quad k=\overline{1,n}$$

2-teorema: *Ye* o‘lchovli Yevklid fazosi $(e_1,...,e_n)$ ortogonal bazis bo‘lsin. $\Rightarrow x_k = (x_1 e_k)$

$(x,e_k) = (x_1 e_1 + ... + x_n e_n, e_k) = x_1(e,e_k) + ... + x_k(e_k,e_2) + ... +$

$+x_n(e_n,e_2) = x_k(e_k,e_k) = x_k \cdot 1 = x_k$

Ta’rif. *Ye* fazo $R_1 \subset E, \quad R_2 \subset E$ bo‘lsin $R_2 = \{y : \forall x \in R; \ (y,x) = 0\}$

Teorema: *R₂,E* aniqlangan skalyar ko‘paytmaga nisbatan qism fazo bo‘ladi.

$$\forall y_1 y_2 \in R_2 \quad y_1 - y_2 \in R_2$$
$$\forall x \in R_1 \quad (y,x) = 0 \quad (y_2,x) = 0$$
$$(y_1 - y_2; x) = (y_1,x) - (y_2;x) = 0 - 0 = 0$$
$$y_1 - y_2 \in R_2$$

2) $\forall \lambda \in R, \ \ \forall y \in R_2 \quad (xy,x) = \lambda \quad (y,x) = \lambda, \ 0 = 0 \quad \lambda y \in R_2$

Ta’rif. *R₂-E* ning qism fazosini *R₁* qism fazoga ortogonal qism fazo deyiladi.

$$E = R_1(+)\ R_2 \quad \dim\ E = n \qquad \dim R_1 = k \quad \dim\ R_2 = n - k$$

$e_1 ... e_n \quad (1) \quad \Rightarrow$ bundagi bazisni $(q_1 ..., q_{n-k})$ (2) bilan belgilaylik.

Ortogonallash jarayoniga ko‘ra (2) bilan (1) ni ortogonal bazisga keltirish mumkin.

$$x = \underline{x_1 e_1 + ... + x_n e_k} + ... + x_n e_n -$$
$$x'(\in)x''$$

$$x' = x_1 e_1 + ... + x_k e_k = R_1$$
$$x'' = (kx+1) \cdot x_{k+1} e_n + ... + x_k e_n = R_2$$

Masalan:

1 $\quad x \ \ x^2$ (1)

$\lambda_1 \cdot 1 + \lambda_2 \cdot x + \lambda_3 \cdot x^2 = 0 = 0 + 0x + 0x^2$

$\lambda_1 = 0, \quad \lambda_2 = 0, \quad \lambda_3 = 0 \quad q_1 = 1 \qquad q_2 = q_1 + \lambda_1 x \qquad (q_2 q_1) = 0$

$q_2 = 1 + (-2)x = 1 - 2x \qquad q_3 = x^2 + \lambda_1 q_1 + \lambda_2 q_2$

$$(1 + \lambda_1 x_1 1) = \int_0^1 (1 + \lambda x)dx \neq 0$$

$$\left(x + \lambda, \frac{x^2}{2}\right)\Bigg|_0^1 = 0 \quad 1 + \frac{1}{2}\lambda_1 = 0 \qquad \lambda_1 = -2$$

$q_2 = 1 + (-2)x = 1 - 2x$

$q_3 = x^2 + \lambda_1 q_1 + \lambda_2 q_2 \qquad (q_3,q_1) = (x^2 + \lambda_1 + \lambda_2(1-2x)\cdot 1) = 0$

$(x^2 + \lambda_1 + \lambda_2(1-2x)\cdot 1 - 2x) = 0$

$(x^2,1) + (\lambda_1,1) + \lambda_2(1-2x,1) = 0$

$$\int_0^1 x^2 dx + \int_0^1 dx + \lambda_2 \int_0^1 (1-2x)dx = \frac{x^3}{3}\Big|_0^1 + \lambda_1 x\Big|_0^1 - \frac{\lambda_2}{2}\frac{(1-2x)}{2}\Big|_0^1$$

Bundan $\lambda_1 = -\frac{1}{3}$ topamiz:

$$(x^2, 1-2x) + \left(-\frac{1}{3};\ 1-2x\right) + \lambda_2 (1-2x, 2x) = 0$$

$$\int x^2(1-2x)dx - \frac{1}{3}\int (1-2x)dx + \lambda_2 \int_0^1 (1-2x)dx = 0$$

$$\frac{x^3}{3}\Big|_0^1 - 2\frac{x^4}{4}\Big|_0^1 - \frac{1}{3}x\Big|_0^1 + \frac{2}{3}\frac{x^2}{2}\Big|_0^1 - \frac{\lambda_0}{2}\frac{(1-2x)}{3}\Big|_0^1 = 0$$

$$-\frac{1}{6} + \frac{\lambda_2}{3} = 0 \quad \lambda_2 = \frac{1}{2} \quad q_3 = x^2 - \frac{1}{3} + \frac{1}{2}(1-2x) = x^2 - x + \frac{1}{6}$$

$1; 1-2x;\ x^2 - x + \frac{1}{6}$ ortogonal vektorlar sistemasi

$$e_1 = 1 \quad e_2 = \frac{1-2x}{\sqrt{(1-2x)(1-2x)}}, \quad e_3 = \frac{x^2 - x + \frac{1}{6}}{\sqrt{\left(x^2 - x + \frac{1}{6}\right)\left(x^2 - x + \frac{1}{6}\right)}}$$

$$(1-2x, 1-2x) = \int_0^1 (1-2x)^2 dx = -\frac{1}{2} \quad \frac{(1-2x)^3}{3}\Big|_0^1 = \frac{1}{3}$$

$$e_2 = \frac{1-2x}{\sqrt{\frac{1}{3}}} = \sqrt{3}(1-2x)$$

$$\left(x^2 - x + \frac{1}{6}, x^2 - x + \frac{1}{6}\right) = \int_0^1 \left(x^2 - x + \frac{1}{6}\right)^2 dx =$$

$$= \left(\frac{x^5}{5} + \frac{x^2}{3} + \frac{1}{36}x - 2\frac{x^4}{4} + \frac{x^3}{9} - \frac{x^2}{6}\right)\Big|_0^1 = \frac{1}{180}$$

$e_3 = \sqrt{180}\ \ \left(x^2 - x + \frac{1}{6}\right)$ $e_1, e_2, e_3 -$ ortogonal bazis.

3-MAVZU: PSEVDOEVKLID FAZO.

REJA:

1. Сферик фазо.
2. Риман геометрияси.

Tayanch iboralar: *Psevdoyevklid fazo, Psevdoyevklid fazoda masofa*

Ma’lumki, Yevklid fazosida koordinatalar boshidan ixtiyoriy M nuqtagacha bo‘lgan masofa

$$OM^2=x^2+u^2+z^2 \qquad (1)$$

formula bilan aniqlanar edi. Endi shu formulani o‘zgartirib, masofani $OM^2=x^2+u^2-z^2$ bo‘yicha topishni ko‘rib chiqaylik.

OM masofa $x^2+u^2>z^2$ bo‘lganda haqiqiy musbat son, $x^2+u^2<z^2$ bo‘lganda esa mavxum sonni aniqlaydi. $x^2+u^2=z^2$ bo‘lganda esa masofa 0ga teng bo‘ladi (M nuqta 0 bilan ustma-ust tushmasa xam).

Bu formulani koordinatalar ko‘rinishda quyidagicha yozish mumkin:

$$M_1M^2_2=(x_2-x_1)^2+(u_2-u_1)^2-(z_2-z_1)^2$$

OM_1 va OM_2 kesmalar orasidagi burchakni esa

$$\text{sos}\varphi=\frac{x_1x_2+y_1y_2-z_1z_2}{\sqrt{x_1^2+y_1^2-z_1^2}\sqrt{x_2^2+y_2^2-z_2^2}}$$

Uzunlik va burchaklar shu formulalar asosida aniqlangan fazolar ***psevdoyevklid fazolar*** deb ataladi. Bu fazoda Yevklid fazosining ko‘pgina aksioma va xossalari saqlanishi bilan bir qatorda ayrim munosabatlar keskin farq qiladi.

Psevdoyevklid fazoda masofani yuqoridagicha aniqlanishidan ko‘rinadiki, unda uch xil to‘g‘ri chiziqlar bo‘lishi mumkin: barcha kesmalari musbat haqiqiy uzunlikka ega to‘g‘ri chiziqlar; mavxum uzunlikdagi kesmalarga ega bo‘lgan to‘g‘ri chiziqlar va barcha kesmalari 0 uzunlikka ega bo‘lgan to‘g‘ri chiziqlar. Bu to‘g‘ri chiziqlarni fazoviy o‘xshash, vaqtli o‘xshash va izotrop to‘g‘ri chiziqlar deb yuritiladi.

Psevdoyevklid fazodagi bu tipdagi to‘g‘ri chiziqlarni chizmadagi ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:







Yuqoridagi formuladan OM=0 shartni qanoatlantiradigan barcha M nuqtalar $x^2+u^2-z^2=0$ tenglama bilan aniqlanadigan tekislikda yotadi.

Bu esa uchi 0 nuqtada joylashgan konus sirtni ifodalaydi.

Ko‘rinib turibdiki, haqiqiy uzunlikdagi to‘g‘ri chiziqlar konusdan tashqarida, mavxumlari ichida va 0 ga tenglari esa konus sirtda yotadi.



4-MAVZU: GIPERBOLIK FAZO

REJA:

1. Yarim Evklid fazolar.
2. Yarim giperbolik fazolar.

Tayanch iboralar: elliptik fazo, giperbolik fazo

n o‘lchovli elliptik fazo deb, R_{n+1} fazoning sferasidagi diametrial qarama-qarshi bo‘lgan nuqtalar to‘plamiga aytiladi (izometrik juft).

Bu fazoni S_n bilan belgilanadi.

S_n fazoni noyevklid Riman fazo deb ham ataladi.

R_{n+1} fazo sferalariga urinmalar R_n fazoni tashkil etganligidan, cheksiz kichik orliqlarda S_p geometriyasi R_p fazo geometriyasiga yaqin bo‘ladi.

S_p fazoning m o‘lchovli tekisligi S_m fazoni tashkil etadi.

Elliptik fazoda masofa masalasi qanday o‘rnatilgan?

Agar S_p fazoning X nuqtasini ifodalovchi vektorlardan biri $\bar{x}$, ikkinchisi ham $\bar{x}$ bo‘lsa, u ‘olda bu vektorlar $\bar{x}^2 = \bar{p}$ munosabat bilan bolangan bo‘ladi.

$\bar{x}$ bilan aniqlangan S_p fazoning X nuqtasini X($\bar{x}$) bilan bog‘lanadi.

Bunda, S–S_{Norton}fazodagi X($\bar{x}$) va U() nuqtalar orasidagi masofa, r esa egrilik radiusidir.

S_p fazo koordinatalari sifatida R_{n+1} fazoning $\bar{x}$ vektorining x^2 koordinatalarini qarash mumkin.

Endi giperbolik fazoning vektor aksiomasi asosida qurilishini ko‘rib chiqaylik

Giperbolik fazoni ta’riflash uchun Ye_pafin fazoning I+IV gruppa aksiomalaridan tashqari quyidagi V gruppa aksiomalari bajarilishi kerak:

V.1^0. Har ikkita $\bar{a}$ va $\bar{b}$ vektorlarning skalyar ko‘paytmasi deb ataluvchi K=$\bar{a}$ Ye $\bar{b}$ son mos quyilgan bo‘lsin.

V.2^0. Skalyar ko‘paytma kommutativ, yaoni $\bar{a}$ Ye $\bar{b}$ = $\bar{b}$ Ye $\bar{a}$

V.3^0. Skalyar ko‘paytma vektorlarni qo‘shishga nisbatan distributiv ya’ni $\bar{a}$ Ye($\bar{b}+\bar{c}$)= $\bar{a}$ Ye $\bar{b}$ + $\bar{a}$ Ye $\bar{c}$

V.4^0. Haqiqiy ko‘paytuvchini skalyar ko‘paytma tashqarisiga chiqarish mumkin:(k$\bar{a}$)E$\bar{b}$ =k$\bar{a}$ E$\bar{b}$

V.5^0. Shunday $\bar{a}_i$ ko‘rinishdagi i ta vektorlar mavjudki, ular uchun

$$\bar{a}_a E \bar{a}_a > 0 \qquad (a \le l)$$

$$\bar{a}_n E \bar{a}_n < 0 \qquad (u > l), \ \bar{a}_i E \bar{b}_j, \ i \ne j$$

Bunday shartlar asosida qurilgan l indeksli psevdoyevklid fazoni R_n ko‘rinishda belgilaymiz.

1. Bizga ma’lumki F(x,y)=0 tenglama tekislikda biror to‘g‘ri chiziqni aniqlaydi, ya’ni OXU tekislikdagi koordinatalari x va u bo‘lgan barcha nuqtalar to‘plami bu tenglamani qanoatlantiradi. Shuningdek, fazoda xam F(x,y,z)=0 (1)

Tenglama OXUZ da biror sirtni, yaoni koordinatalari x,y,z bo‘lgan va (1) tenglamani qanoatlantiradigan nuqtalar to‘plamini aniqlaydi. (1) tenglama sirtning tenglamasi, x,y,z lar esa uning o‘zgaruvchi koordinatalari deyiladi.

Ikkinchi tartibli sirtning umumiy tenglamasi quyidagi ko‘rinishda yoziladi:

$$a_1+x^2+a_{22}y^2+a_{33}z^2+2a_2xy+2a_{13}xz+2a_{23}yz+2a_{14}x+2a_{24}y+2a_{34}z+a_{44}=0 \quad .$$

bu tenglamadagi $a_1, a_{22}, a_{33}, a_2, a_{13}, a_{23}$ koeffitsiyentlarning kamida bittasi noldan farqli bo‘lishi kerak. Ayrim hollarda sirt tenglamasi bilan emas, balki u yoki bu xossaga ega bo‘lgan nuqtalarning geometrik o‘rni bilan berilishi mumkin. bu holda sirtning geometrik xossalaridan foydalanib uning tenglamasi tuziladi.

13^0. Sferaning OXUZ to‘g‘ri burchakli Dekart koordinatalar sistemasidagi tenglamasini tuzamiz.

Markazi 0'(a,b,c) nuqtada va radiusi R bo‘lgan sfera berilgan bo‘lsin. Agar μ(x,y,z) nuqta sferaning ixtiyoriy nuqtasi bo‘lsa, u holda 0'(a,b,c) va μ(x,y,z) nuqtalar orasidagi masofani toipsh formulasidan foydalansak, sfera tenglamasi quyidagicha bo‘ladi:

$$(x-a)^2+(y-b)^2+(z-c)^2=R^2 \qquad (1)$$

(*13*)–markazi 0'(a,b,c) bo‘lgan nuqtada yotuvchi va radiusi R ga teng bo‘lgan sfera tenglamasi deyiladi. Agar (*13*) da a=b=c=0 bo‘lsa, markazi koordinatalar boshida yotuvchi va radiusi R ga teng bo‘lgan sfera tenglamasiga ega bo‘lamiz:

$$x^2+y^2+z^2=R^2 \qquad (2)$$

(*13*) ni quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$x^2+y^2+z^2-2ax-2by-2cz+a^2+b^2+c^2-R^2=0 \qquad (3)$$

Sferatenglamasiikkinchitartiblisirtbo‘lishiniko‘rsataylik. Buning uchun sirtning (2) tenglamasida $a_2=a_{13}=a_{23}=0$ va $a_1=a_{22}=a_{33}$ deb olinsa, (2) tenglama sferaning tenglamasi ekanini tekshiramiz. Buning uchun $a_1\neq 0$ deb (4) ning hamma hadlarini a_1 ga bo‘lamiz va quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$A=\frac{2a_{14}}{a_{11}}, B=\frac{2a_{24}}{a_{11}}, C=\frac{2a_{34}}{a_{11}}, D=\frac{a_{44}}{aa_{11}}$$

Natijada

$$x^2+y^2+z_2+Ax+By+Cz+D=0$$

ko‘rinishdagi tenglamaga ega bo‘lamiz. Oxirgi tenglamani ushbu ko‘rinishda yozib olamiz

$$\left(x+\frac{A}{2}\right)^2+\left(y+\frac{B}{2}\right)^2+\left(z+\frac{C}{2}\right)^2=\frac{1}{4}\left(A^2+B^2+C^2-4D\right)$$

Yoki $\left(x+\frac{A}{2}\right)^2+\left(y+\frac{B}{2}\right)^2+\left(z+\frac{C}{2}\right)^2=\left(\frac{1}{2}\sqrt{A^2+B^2+C^2-4D}\right)^2$ (5)

(5) tenglamadan ko‘rinadiki, $A^2+B^2+C^2-4D>0$ bo‘lganda (4) tenglama maonoga ega bo‘ladi. Demak, $A^2+B^2+C^2-4D>0$ bo‘lsa, (5) tenglama markazi

$$\left(-\frac{A}{2},-\frac{B}{2},-\frac{C}{2}\right)$$

nuqtada va radiusi

$$R=\frac{1}{2}\sqrt{A^2+B^2+C^2-4D}$$

bo‘lgan sferani ifodalaydi. Agar $A^2+B^2+C^2-4D=0$ bo‘lsa, (5) tenglama

$$\left(x+\frac{A}{2}\right)^2+\left(y+\frac{B}{2}\right)^2+\left(z+\frac{C}{2}\right)^2=0$$

ko‘rinishda bo‘lib, u faqat bitta $\left(-\frac{A}{2},-\frac{B}{2},-\frac{C}{2}\right)$ nuqtani ifodalaydi.

2^0. Biror P tekislikda yotuvchi L chiziqning har bir nuqtasidan o‘tuvchi va berilgan *l* to‘g‘ri chiziqqa parallel bo‘lgan barcha to‘g‘ri chiziqlardan tashkil topgan sirt ***silindrik sirt*** deyiladi. bunda L chiziq silindrik sirtning yo‘naltiruvchisi, *l* to‘g‘ri chiziqqa parallel va L chiziqni kesuvchi chiziqlar uning yasovchisi deyiladi (1–chizma).



Yo‘naltiruvchilari koordinata tekisliklaridan birida yotuvchi yasovchilari esa shu tekislikka perpendikulyar bo‘lib, koordinatalar o‘qiga parallel bo‘lgan silindrik sirtlarni ko‘raylik. OX tekislikda tenglamasi F(x,y)=0 (6)
bo‘lgan L chiziq va yasovchilari OZ o‘qqa parallel bo‘lgan silindrik sirtni yasaymiz (2–chizma). (6) tenglama OXYZ koordinatalar sistemasida silindrik sirt ekanini ko‘rsataylik.

M(x,y,z) –silindrik sirtning ixtiyoriy tayinlangan nuqtasi bo‘lsin. M nuqta orqali o‘tuvchi yasovchining L yo‘naltiruvchisi bilan kesishgan nuqtasini N bilan belgilaymiz. N nuqta M nuqtaning OXU tekisligidagi proyeksiyasidir. Shuning uchun M va N nuqtalar bitta x absissa va bitta u ordinataga ega. N nuqta L chiziqda yotgani uchun u egri chiziqning (6) tenglamasini qanoatlantiradi.

Demak, bu tenglamani M(x,y,z) nuqtaning koordinatalari ham qanoatlantiradi. OXYZ fazoda L yo‘naltiruvchi quyidagi ikkita tenglama sistemasi bilan aniqlanadi:

$$\begin{cases} F(x,y)=0 \\ Z=0 \end{cases}$$

Xuddi shunga o‘xshash

$$\begin{cases} F(x,z)=0 \\ y=0 \end{cases} \text{va} \quad \begin{cases} F(y,z)=0 \\ x=0 \end{cases}$$

tenglamalar silindrik sirtlarning L yo‘naltiruvchi chiziqlarini mos ravishda OXZ va OUZ tekislikdagi holatini aniqlashni ko‘rsatish mumkin.

